



## ZAMONAVIY JAMIYATDA IJTIMOYIY TADBIRKORLIKNING ROLI

**Xodjayev Nodir**

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi*

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi*

*ORCID: 0009-0007-1772-6827*

*[n.xodjaev@ung.uz](mailto:n.xodjaev@ung.uz)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tadbirkorlikning roli, uning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston misolida ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar asosidagi amaliy tajribalar o'rganildi. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar – huquqiy bo'shliqlar, moliyaviy savodxonlikning pastligi va innovatsion texnologiyalarning sust joriy etilishi chuqur tahlil etildi. Maqolada mavjud imkoniyatlar asosida bir qator amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular sohaga institutsional asos yaratish, qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiy innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy adolat, inklyuziv iqtisodiyot, subsidiyalar, bandlik, O'zbekiston amaliyoti, ijtimoiy innovatsiyalar, davlat qo'llab-quvvatlovi, moliyaviy savodxonlik, huquqiy asoslar.

## РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

**Ходжаев Нодир**

*Высшая школа бизнеса и предпринимательства при*

*Кабинете Министров Республики Узбекистан*

**Аннотация.** В статье приводится глубокий анализ роли социального предпринимательства в современном обществе и его значения в обеспечении экономической и социальной стабильности. В исследовании рассмотрены тенденции развития социального предпринимательства, механизмы государственной поддержки, субсидии и практический опыт на основе льготного кредитования в Узбекистане. Также был проведен глубокий анализ основных проблем, препятствующих развитию социального предпринимательства, – пробелов в законодательстве, низкой финансовой грамотности, медленного внедрения инновационных технологий. В статье разработан ряд практических предложений и рекомендаций, основанных на существующих возможностях, направленных на создание институциональной основы сектора, укрепление законодательства и стимулирование социальных инноваций.

**Ключевые слова:** социальное предпринимательство, социальная справедливость, инклюзивная экономика, субсидии, занятость, узбекская практика, социальные инновации, государственная поддержка, финансовая грамотность, правовая база.

## THE ROLE OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN MODERN SOCIETY

**Khodjayev Nodir***Graduate School of Business and Entrepreneurship under the  
Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan*

**Abstract.** *The article provides an in-depth analysis of the role of social entrepreneurship in modern society and its importance in ensuring economic and social stability. The study examines trends in the development of social entrepreneurship, mechanisms of state support, subsidies and practical experience based on preferential lending in Uzbekistan. A deep analysis of the main problems hindering the development of social entrepreneurship was also conducted - gaps in legislation, low financial literacy, slow implementation of innovative technologies. The article develops a number of practical proposals and recommendations based on existing opportunities aimed at creating an institutional framework for the sector, strengthening legislation and stimulating social innovation.*

**Keywords:** *social entrepreneurship, social justice, inclusive economy, subsidies, employment, Uzbek practice, social innovation, state support, financial literacy, legal framework.*

**Kirish.**

Zamonaviy dunyoda yuz berayotgan tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy tadbirkorlik fenomeni alohida e'tiborni jalb qilmoqda. Bu hodisa an'anaviy tadbirkorlikdan farqli o'laroq, nafaqat moliyaviy foyda olish, balki dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etish, aholi zaif qatlamlarining hayot sifatini yaxshilash, mahalliy hamjamiyatlarni rivojlantirish va barqaror taraqqiyotga hissa qo'shishga qaratilgan faoliyatdir.

Bugungi kunda jamiyat ishsizlik, qashshoqlik, ekologik tahdidlar, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga teng imkoniyatlarning yo'qligi kabi ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Afsuski, davlat va bozor mexanizmlari bu muammolarni hal etishda har doim ham yetarli samara bermayapti. Shu sababli, ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbuslarni ilgari surish va ularni amalda ro'yobga chiqarishda muhim vositaga aylanmoqda. Innovatsion yondashuvlar va barqaror natijalarga yo'naltirilgan strategiyalar orqali ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirib, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash infratuzilmasining muhim qismi bo'lib bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy tadbirkorlikning zamonaviy jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini o'rganish nihoyatda muhimdir. Bu nafaqat ushbu hodisaning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi salohiyatini aniqlashga, balki ushbu sohani rivojlantirish uchun davlat va fuqarolik jamiyati tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar sharhi.**

Ijtimoiy tadbirkorlik g'oyasi so'nggi o'n yilliklarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning innovatsion omili sifatida jahon miqyosida keng e'tirof etila boshladi. Bu borada muhim ilmiy ishlardan biri Gregory Dees (1998) tomonidan yozilgan "The Meaning of Social Entrepreneurship" nomli maqola bo'lib, u ijtimoiy tadbirkorlikni ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan innovatsion faoliyat sifatida tavsiflaydi. Deesning ta'kidlashicha, ijtimoiy tadbirkorlar moliyaviy foydadan ko'ra, ijtimoiy ta'sirga ustuvor ahamiyat beradi. U klassik tadbirkorlik tushunchasini ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtiradi, bu esa ijtimoiy innovatsiyalarni ilgari surishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi (Dees, 1998).

Muhammad Yunus o'zining "Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism" asarida ijtimoiy tadbirkorlikning "ijtimoiy biznes" shakliga urg'u beradi. U Grameen Bank modeli orqali kambag'allikka qarshi kurashishda mikrokreditlar orqali ijtimoiy o'zgarishlarga erishish mumkinligini amalda isbotlaydi. Yunusga ko'ra, ijtimoiy biznes

foyda olishni emas, balki muayyan ijtimoiy muammoni hal qilishni maqsad qiladi. U kapitalistik tizim ichida insonparvarlik yondashuvini qo'llab-quvvatlaydi (Yunus, 2007).

Nicholls (2006) tomonidan tahrirlangan "Social Entrepreneurship: New Models of Sustainable Social Change" kitobida ijtimoiy tadbirkorlik turli shakllar va kontekstlarda qanday namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Muallif ijtimoiy tadbirkorlikni barqaror rivojlanish, ijtimoiy kapital shakllanishi va fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi bilan bog'liq jarayon sifatida qaraydi. Nicholls ijtimoiy tadbirkorlikning jamiyatda institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish qudratiga egaligini ko'rsatadi.

Bornstein va Davis (2010) o'zlarining "Social Entrepreneurship: What Everyone Needs to Know" nomli asarlarida ijtimoiy tadbirkorlarni "muammo hal qiluvchi liderlar" deb ataydi. Ular ijtimoiy tadbirkorlar mavjud tizimlardagi nomukammalliklarni anglab, ularni isloh qilishga intiluvchi tashabbuskor shaxslar sifatida namoyon bo'lishini qayd etadilar. Asarda ko'plab real misollar orqali ijtimoiy tadbirkorlikning global miqyosdagi ta'siri ochib beriladi.

O'zbekiston olimlaridan Davletova va Xidirovning tadqiqotida ijtimoiy tadbirkorlik milliy kontekstda yoritiladi. Mualliflar O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rag'batlantirish mexanizmlari, huquqiy asoslar va mavjud to'siqlarni tahlil qilib, sohaning rivoji uchun aniq takliflarni ilgari surishadi. Ularning fikricha, ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatdagi zaif qatlamlarni iqtisodiy faoliyatga jalb etishda muhim vosita bo'lishi mumkin (Davletova, Xidirov, 2020).

MDH hududidagi yondashuvlarga to'xtaladigan bo'lsak, Rossiyalik tadqiqotchilar Lebedeva va Popova (2018) o'zlarining ilmiy maqolalarida ijtimoiy tadbirkorlikning jamiyatdagi inklyuziv rivojlanishga qo'shgan hissasini tahlil qiladilar. Ularning tadqiqotida ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy xizmatlar sifati, mehnat bandligi va aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi ko'rsatiladi.

Xalqaro miqyosda yana bir muhim tadqiqot Martin va Osberg tomonidan taklif etilgan modeldir. Olimlar tomonidan ijtimoiy tadbirkorlik boshqa turdagi faoliyatlardan, xususan, xayriya va klassik biznesdan ajratib ko'rsatiladi. Ular ijtimoiy tadbirkorlikni innovatsionlik, barqarorlik va keng ko'lamdagi ijtimoiy ta'sir kabi belgilari asosida farqlaydilar (Martin, Osberg, 2007).

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlik bugungi kunda turli yondashuvlarga ega bo'lgan murakkab tushuncha sifatida qaralmoqda. Ba'zi mualliflar ijtimoiy tadbirkorlikni ijtimoiy muammolar yechimi orqali yangi qiymat yaratish vositasi sifatida ko'rishsa, boshqalar uni ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlovchi mexanizm sifatida baholashmoqda. Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, ijtimoiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ijtimoiy ahamiyatni ham o'zida mujassam etgan holda zamonaviy jamiyat uchun muhim yo'nalishlardan biriga aylanmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqola ijtimoiy tadbirkorlik haqidagi nazariy bilimlarga asoslangan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, induksiya, deduksiyadan foydalangan holda ilmiy natijalar ishlab chiqildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy jamiyatda an'anaviy biznes va ijtimoiy missiyani uyg'unlashtiruvchi innovatsion faoliyat shaklidir. U klassik daromad olish modelidan farqli o'laroq, ijtimoiy muammolarni hal qilishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Ijtimoiy tadbirkorlar odatda jamiyatda mavjud bo'lgan tengsizlik, atrof-muhit ifloslanishi, nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan qatlamlar va ishsizlik kabi dolzarb masalalarni o'z biznes g'oyalari orqali hal etishga intiladilar. Bu esa, ularni oddiy tadbirkorlardan ajratib turadigan muhim jihatdir: foyda olish ular uchun yakuniy maqsad emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarga erishish vositasidir.

Zamonaviy ijtimoiy tadbirkorlikning yondashuvlarida iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy adolatni ta'minlash, barcha qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, xizmatlar va resurslardan foydalanishda inklyuzivlik tamoyillarini qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya bu sohada yangi ufqlarni ochib bermoqda — masalan, sun'iy intellekt, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali aholining zaif qatlamlariga sog'liqni saqlash, ta'lim va moliyaviy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlari kengaymoqda.

Global miqyosda ijtimoiy tadbirkorlikning roli kuchayib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha mo'ljallangan Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs) doirasida ijtimoiy tadbirkorlik ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allikni kamaytirish, gender tengligini ta'minlash, ekologik barqarorlikni oshirish, sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, 4-maqсад (Sifatli ta'lim), 5-maqсад (Gender tengligi), 8-maqсад (Munozaratli iqtisodiy o'sish va munosib ish o'rinlari) va 10-maqсад (Tengsizlikni qisqartirish) ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining markazida turadi.

Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi va Afrika mintaqalarida minglab ijtimoiy startaplar va notijorat bizneslar hukumatlar bilan hamkorlikda ishlayapti. Masalan, Hindistonda ayollarni tikuvchilik sohasida ish bilan ta'minlovchi SEWA (Self-Employed Women's Association) kabi tashkilotlar millionlab ayollarga iqtisodiy mustaqillik bergan. Ruandada esa, Zipline kompaniyasi dronlar orqali qishloqlarga tez tibbiy yordam yetkazish bo'yicha ilg'or model yaratdi. Bu kabi misollar ijtimoiy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy transformatsiyani uyg'unlashtirgan samarali mexanizm ekanini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ijtimoiy tadbirkorlik – bu oddiy biznes emas, balki jamiyatni ijobiy o'zgartirishga qaratilgan harakatdir deb xech bir mubolag'asiz aytishimiz mumkin. U innovatsion g'oyalar, barqaror modellar va insonparvar yondashuvlar orqali jamiyat muammolarini hal qilishning ilg'or yo'li bo'lib, zamonaviy dunyoda ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta'minlashda tobora muhim o'rin egallamoqda.

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik nisbatan yangi tushuncha bo'lishiga qaramay, u so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Rivojlanayotgan iqtisodiyot va jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, ayniqsa, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari – ayollar, yoshlar, nogironlar va kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan dasturlar ijtimoiy tadbirkorlik uchun real zamin yaratdi. Ijtimoiy tadbirkorlik bugungi kunda nafaqat ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, balki barqaror bandlik, xizmat ko'rsatish sifati va mahalliy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko'rilmogda.

Hukumat tomonidan so'nggi yillarda amalga oshirilgan “Yoshlar – kelajagimiz”, “Ayollar daftari”, “Temir daftar” kabi ijtimoiy dasturlar ijtimoiy tadbirkorlikni rag'batlantirishda muhim bosqich bo'ldi. Ushbu dasturlar doirasida yoshlar va ayollar uchun imtiyozli kreditlar, subsidiyalari, professional o'qitish, yuridik yordam va marketing ko'magi ko'rsatildi.

2023-yil yakuniga qadar erishilgan natijalar sifatida quyidagilarni qayd etishimiz mumkin:

- 185 mingdan ortiq yoshlar va ayollar ijtimoiy yo'naltirilgan biznesni yo'lga qo'ygan. Bu raqam O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining nafaqat shakllanayotganini, balki amaliyotda kengayib borayotganini anglatadi;

- Har 4 nafar subsidiyalangan tadbirkordan 1 nafari ayollar yoki nogironligi bo'lgan fuqarolardan iborat bo'lib, bu esa ijtimoiy adolat va inklyuzivlik tamoyillarining amalda tatbiq etilayotganining isboti sifatida ko'riladi;

- 2021–2023 yillar davomida davlat tomonidan taqdim etilgan imtiyozli kreditlar hajmi 2,3 trillion so'mga yetgan bo'lib, bu minglab yangi ish o'rinlarini yaratdi va mahalliy iqtisodiyotda barqaror bandlikni ta'minladi.

Amaliyotda ijtimoiy tadbirkorlar jamiyat uchun zarur bo'lgan bir qator xizmat turlarini taklif qilmoqda. Jumladan:

- Tikuvchilik sexlari — ayollarni ish bilan ta'minlash va milliy mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- Xususiy bolalar bog'chalari — ta'lim xizmatlarining inklyuzivligini oshirish va mehnat qilayotgan onalarga qulaylik yaratish;
- Reabilitatsiya markazlari va nogironlar uchun xizmat ko'rsatuvchi muassasalar — ijtimoiy muhofaza va tibbiy yordamni yanada qulay va sifatli qilish;
- Ekologik xizmatlar — chiqindilarni qayta ishlash, yashil energiya va ekologik ta'lim loyihalari orqali barqaror rivojlanishga hissa qo'shish.

Mahalla darajasida bu kabi faoliyatlar aholining o'zini o'zi band qilish darajasini oshiribgina qolmay, balki jamiyatdagi ishonch va ijtimoiy birdamlik muhitini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy faolligi past hududlarda ijtimoiy tadbirkorlik aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va yoshlar migratsiyasini kamaytirish vositasi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini huquqiy asoslar bilan tartibga solish bo'yicha ham qadamlar qo'yilmoqda. 2022-yilda "Ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risida" qonun loyihasi ishlab chiqildi va 2023-yilning oxirida uning ayrim normalari eksperiment sifatida ayrim viloyatlarda sinovdan o'tkazilmoqda. Bu esa kelgusida ijtimoiy tadbirkorlikni institutsional mustahkamlash imkonini beradi.

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik rivojining bosqichma-bosqich kengayib borayotganini kuzatish mumkin. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga qaratilgan amaliy yondashuvlar, moliyaviy va tashkiliy ko'mak mexanizmlarining takomillashuvi, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan biznes modellarning paydo bo'lishi bu yo'nalishda ijobiy siljishlarga asos bo'lmoqda. Endilikda ijtimoiy tadbirkorlik nafaqat muammolarga yechim, balki innovatsion taraqqiyot va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Ijtimoiy tadbirkorlik sohasi O'zbekistonda jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, uni barqaror va keng ko'lamli faoliyat shakliga aylantirish yo'lida hali ham qator tizimli muammolar mavjud. Bu muammolar nafaqat alohida tadbirkorlar darajasida, balki institutsional va strategik siyosat yo'nalishida ham yechimini kutmoqda. Ushbu sohadagi eng asosiy uchta muammo quyidagilardan iborat (1-rasm).



**1-rasm. O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlanishida asosiy muammolar**

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik hali qonunchilikda mustaqil faoliyat shakli sifatida to'liq tan olinmagan. Amaldagi "Tadbirkorlik faoliyati", "Nodavlat notijorat tashkilotlari", "Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash" kabi huquqiy hujjatlarda ijtimoiy tadbirkorlik faqat bilvosita tilga olinadi. Bu esa quyidagi holatlarga olib kelmoqda:

- Ijtimoiy tadbirkorlar rasmiy imtiyozlarga, jumladan, soliq yengilliklari, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash (grantlar, subsidiya) olish, hamda xalqaro donorlar bilan shaffof hamkorlik qilishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda;



• Banklar va investorlar ijtimoiy tadbirkorlikni noaniq biznes shakli sifatida baholashi sababli kredit ajratishda ehtiyotkorlik bilan yondashmoqda;

• Ijtimoiy natijalarni o'lchash va monitoring qilish mexanizmlari mavjud emasligi bu sohadagi faoliyatning samardorligini baholashni murakkablashtirmoqda.

Mazkur muammoni hal etish uchun institutsional darajada yechim topish zarur. Xususan, "Ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risida" alohida qonun loyihasi ishlab chiqish zarur. Bu qonun ijtimoiy tadbirkorlikning aniq ta'rifini, subyektlarini, imtiyoz va majburiyatlarini belgilab, uni institutsional maqomga ega qilishga xizmat qilishi lozim.

Ijtimoiy tadbirkorlikning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat ijtimoiy g'oya, balki uni moliyaviy jihatdan barqaror qilish bilan bog'liqdir. Afsuski, O'zbekistonda ushbu sohada ishtirok etayotganlar orasida biznes yuritish ko'nikmalari hali yetarli emas. Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) ma'lumotlariga ko'ra 30% subsidiyalangan ijtimoiy tadbirkorlar faoliyatni davom ettira olmagan. Buning sababi sifatida biznes-reja tuzish, moliya va soliq hisobotlari yuritish, maqsadli auditoriyani aniqlash va bozor segmentatsiyasini tushunmaslik holatlari ko'rsatilmoqda. Aksariyat hollarda loyihalar grant olgandan so'ng davomiyliksiz qolmoqda, bu esa "grantga bog'liqlik sindromi"ni yuzaga keltiradi.

Bu muammoni bartaraf etish uchun ijtimoiy tadbirkorlik sohasidagi tashabbuskorlar uchun maxsus o'quv dasturlari, mentorlik tizimlari, inkubator va akselerator markazlari tashkil etilishi zarur. Shuningdek, kasb-hunar markazlari va oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy tadbirkorlik fanini kiritish orqali yangi avlod tadbirkorlarining bilim salohiyati oshirilishi mumkin.

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida har qanday tadbirkorlik, ayniqsa ijtimoiy yo'nalishdagi biznes raqamli texnologiyalarni faol qo'llamasdan samarali faoliyat yuritishi qiyin. Ammo O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlarning ko'pchiligi hali ham an'anaviy faoliyat shakllaridan chiqmagan. Davlat statistika qo'mitasi (2023) ma'lumotlariga ko'ra elektron savdo, onlayn xizmat ko'rsatish, raqamli marketing va CRM tizimlaridan foydalanuvchi ijtimoiy tadbirkorlar soni 12–15% atrofida bo'lib, ko'plab ijtimoiy tadbirkorlar ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama, mijozlar bilan aloqalarni raqamli tarzda yuritish, to'lov tizimlari bilan integratsiya qilish imkoniyatlariga ega emas. Raqamli infratuzilma va IT savodxonlik yetishmasligi natijasida ularning xizmatlari bozor ko'lami va raqobatbardoshligini cheklab qo'ymoqda.

Ushbu muammoning yechimi sifatida ijtimoiy tadbirkorlar uchun IT infratuzilmani subsidiyalash, raqamli savodxonlik bo'yicha treninglar tashkil etish, ularni elektron tijorat platformalariga integratsiya qilish orqali ularning raqamli transformatsiyasini tezlashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, "One Village, One Product" kabi onlayn sotuv platformalarini ijtimoiy tadbirkorlar uchun ochish orqali ularga yangi bozorlar eshigini ochish mumkin.

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati uchun real shart-sharoitlar yaratilayotgan bo'lsa-da, uning samaradorligini oshirish uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Huquqiy asosning mustahkamlanishi, biznes va moliyaviy savodxonlikni oshirish, shuningdek, raqamli transformatsiyani tezlashtirish orqali ijtimoiy tadbirkorlik mamlakatda nafaqat ijtimoiy tenglik, balki barqaror iqtisodiy o'sish omiliga ham aylanishi mumkin. Chunki, O'zbekiston ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun salmoqli salohiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishda bir qator ijtimoiy, institutsional va xalqaro resurslardan foydalanish imkoniyati mavjud. So'nggi yillarda ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash nafaqat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga, balki mahalliy tashabbuskorlar va yoshlarning faolligi bilan ham mustahkamlanmoqda.

Birinchidan, mamlakatda mavjud mahalla instituti ijtimoiy tadbirkorlikni hududiy ehtiyojlarga mos holda shakllantirish uchun noyob infratuzilma vazifasini bajarmoqda. Mahalla orqali ehtiyojmand aholining aniq segmentlari aniqlanib, tegishli xizmatlar ko'rsatish bo'yicha

mahalliy tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz onalar, ishsiz yoshlar uchun tikuvchilik sexlari, reabilitatsiya markazlari, ijtimoiy xizmat ko'rsatish punktlari kabi ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalar shakllantirilmoqda. Bunday yondashuv, nafaqat mahalla darajasida bandlik va xizmatlar doirasini kengaytiradi, balki jamiyatdagi ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, O'zbekiston ijtimoiy tadbirkorlik sohasida xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik olib bormoqda. Xususan, UNDP, USAID, GIZ kabi donorlar tomonidan moliyalashtirilayotgan grantlar orqali ko'plab ijtimoiy startaplar shakllanmoqda. Misol tariqasida, 2022-yilda GIZ tomonidan moliyalashtirilgan "Imkon" nomli ijtimoiy loyiha nogironlar uchun moslashtirilgan mehnat markazini tashkil etdi. Bugungi kunga kelib ushbu markaz orqali 150 dan ortiq shaxs barqaror ish bilan ta'minlandi. Bu kabi tashabbuslar O'zbekistonda xalqaro hamkorlik asosida innovatsion ijtimoiy xizmatlar rivojlanayotganining yaqqol dalilidir.

Uchinchidan, yoshlar salohiyati O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni yanada ilgari suruvchi asosiy kuchlardan biri hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, raqamli platformalar va ijtimoiy xizmatlarni avtomatlashtirish kabi yo'nalishlarda yosh tadbirkorlar tobora faol bo'lib bormoqda. 2023-yilda o'tkazilgan "Startap tashabbuslari" tanlovida 1 000 dan ortiq ijtimoiy yo'naltirilgan loyiha ishtirok etgan bo'lib, bu yoshlarda ijtimoiy mas'uliyatli biznes yuritishga bo'lgan qiziqish ortayotganini ko'rsatadi. Ularning yangi g'oyalari innovatsion yechimlar yaratishda va mahalliy muammolarga moslashtirilgan xizmatlar ko'rsatishda muhim o'rin tutmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay institutsional asoslar, xalqaro moliyalashtirish imkoniyatlari va yoshlar salohiyati mavjud bo'lib, ularni tizimli tarzda birlashtirish orqali mamlakatda barqaror va inklyuziv ijtimoiy iqtisodiyot modelini shakllantirish mumkin. Kelgusida bu soha uchun normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash, startaplarni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini kengaytirish va innovatsion ta'lim dasturlarini joriy etish orqali ijtimoiy tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

Ijtimoiy tadbirkorlik bugungi kunda faqat iqtisodiy daromad olishni emas, balki ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va inklyuziv rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Bu turdagi tadbirkorlik modeli jamiyatda mavjud muammolarni — kambag'allik, bandlik yetishmasligi, nogironlar va ayollar uchun ish imkoniyatlarining cheklanganligini bartaraf etishda sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlat tomonidan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va mahalliy dasturlar (masalan, "Ayollar daftari", "Temir daftar") orqali ijtimoiy tadbirkorlikka turtki berilmoqda. 2023-yilgi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bu sohaga jalb etilganlar soni o'nlab minglarga yetgan, natijada yangi ish o'rinlari yaratilgan va mahalliy aholi daromadi oshgan. Biroq, qonunchilik asosining yetarli darajada shakllanmaganligi, moliyaviy va biznes savodxonlikning pastligi, innovatsion texnologiyalardan foydalanishdagi sustlik bu sohaga xos muammolar sirasiga kiradi.

Shu bois, ijtimoiy tadbirkorlikni milliy taraqqiyot strategiyasining bir bo'lagi sifatida ko'rib chiqish zarur. Sohani huquqiy jihatdan mustahkamlash, soliq va moliyaviy imtiyozlarni kengaytirish, xalqaro grantlar va texnologik inkubatorlardan foydalanishni rag'batlantirish, ayniqsa yoshlar va ayollarni o'qitish orqali salohiyatini oshirish kabi chora-tadbirlar eng muhim ustuvor yo'nalishlardir. Bu esa ijtimoiy tadbirkorlikni barqaror rivojlanishning muhim mexanizmlaridan biriga aylantiradi.

**Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:**

Bornstein, D., & Davis, S. (2010). *Social entrepreneurship: What everyone needs to know*. Oxford University Press.

Davletova, T., & Khidirov, A. (2020). *Ijtimoiy tadbirkorlik: Nazariy asoslari va rivojlanish yo'nalishlari [Social entrepreneurship: Theoretical foundations and development directions]*. Iqtisodiyot va Ta'lim Nashriyoti.

Dees, J. G. (1998). *The meaning of social entrepreneurship*. Kauffman Center for Entrepreneurial Leadership. <https://entrepreneurship.duke.edu/news-item/the-meaning-of-social-entrepreneurship>

Lebedeva, N. M., & Popova, E. V. (2018). *Sotsial'noe predprinimatel'stvo kak faktor ustoichivogo razvitiia regiona [Social entrepreneurship as a factor of sustainable regional development]*. Vestnik Tomskogo Gosudarstvennogo Universiteta. Ekonomika, (43), 72–87.

Martin, R. L., & Osberg, S. (2007). *Social entrepreneurship: The case for definition*. Stanford Social Innovation Review, 5(2), 28–39. [https://ssir.org/articles/entry/social\\_entrepreneurship\\_the\\_case\\_for\\_definition](https://ssir.org/articles/entry/social_entrepreneurship_the_case_for_definition)

Nicholls, A. (Ed.). (2006). *Social entrepreneurship: New models of sustainable social change*. Oxford University Press.

Yunus, M. (2007). *Creating a world without poverty: Social business and the future of capitalism*. PublicAffairs.